

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakul'teti

“Umumtexnika fanlari” kafedrası

RAJABOVA NARGIZA BAXTIYOROVNA

**Mehnat ta'limi darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi
(IX sinflarda “Servis xizmati” yo'nalishi mavzulari misolida)**

5142000 – “Mehnat ta'limi” yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi” kafedra mudiri**
_____p.f.n. H.O.Jo'rayev
“ _____ ” _____2014 y.

Ilmiy rahbar_____p.f.n. H.O.Jo'rayev
“ _____ ” _____2014 y.

**“Himoya qilishga ruxsat berildi”
Fizika-matematika fakul'teti dekani**
_____Sh.M.Mirzayev
“ _____ ” _____2014 y.

**Taqrizchi: Buxoro shahar 18-umumiy o'rta
ta'lim maktabi mehnat ta'limi o'qituvchisi**
_____S.Shafiyev
“ _____ ” _____2014 y.

Buxoro – 2014 y.

Kirish

1-BOB. MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

1.1 9-sinf mehnat ta'limi "Servis yo'nalishi" mazmuni

1.2. Didaktik o'yin texnologiyalari mazmun-mohiyati

1.3. Rolli-ishbop hamda ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi

Xulosa

2-BOB. MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. Ta'lim jarayonidagi o'yin texnologiyalar

2.2. Mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish
metodikasi

Xulosa

Xotima

Adabiyotlar

Kirish

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimiz rivojlanishining muhim sharti zamonaviy iqtisodiyot, fan, madaniyat, texnika, texnologiya rivoji asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimining amal qilishiga erishishdir.

Ta'limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan, pedagogik va axborot texnologiyalar usullarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o'qituvchilarini pedagogik va axborot texnologiyalar usullari bilan qurollantirish va egallagan bilimlarini o'quv–tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim.

Zamonaviy didaktika o'qitish talablari, amaliy faoliyatdagi yangicha yondashuvlar ta'lim berish texnologiyasi bilan boyib borar ekan. O'qituvchi o'zidan o'quv ma'lumotini o'tkazuvchi o'ziga xos filtr rolini bajaradi va ish jarayonida yordamchi funkstiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida faol metodlar asosida o'qitish avvalambor katta yoshdagi o'quvchilarni intensiv o'qitish jarayonida qo'llash uchun mo'ljallangan xulosa qilib aytish mumkinki, faol o'qitish metodlarini qo'llab mashg'ulot o'tilganda, materialni o'zlashtirish darajasi yuqori bo'ladi, ishtirokchilar o'rtasida do'stona muhit yaratiladi.

Har bir o'qituvchi ayrim turdagi didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchilar o'zmutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq didaktik o'yin turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlashlari va shu mashg'ulotni bayon qilib berishlari, tegishli muhokamalar o'tkazib borilishi tavsiya qilinadi.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: Mehnat ta'lim darslarida didaktik o'yin texnologiyalaridan foydalanib o'qitish metodikasini ishlab chiqish iborat.

Bitiruv malakaviy ish ob'ekti: Mehnat ta'limi fanidan nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayoni.

Bitiruv malakaviy ish predmeti: Mehnat ta'limi darslarida didaktik o'yin texnologiyalardan foydalanib o'qitishning shakli, vosita va metodlari.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari:

- mehnat ta'limida nazariy va amaliy mashg'ulotlari jarayonida o'yin texnologiyalardan foydalanishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini tahlil qilish;

- mehnat ta'limi jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning shakllari va yo'llari;

- mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishga doir metodik ishlanmalar tayyorlash.

Tadqiqot usuli va usuliyoti: tadqiqot mavzusiga doir bo'lgan ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish; umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarini tashkil qilinishini kuzatish, maktab me'yoriy hujjatlari va yetakchi o'qituvchilarning tajribalarini o'rganish.

Olingan asosiy natijalar: Umumiy o'rta ta'lim maktablari IX sinf «Servis xizmati» yo'nalishi mavzularini o'yin texnologiyalaridan foydalanib o'qitish metodikasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

- mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning didaktik va uslubiy imkoniyatlari aniqlandi;

- mehnat ta'limi jarayonida o'yin texnologiyalaridan foydalanishning shakllari va yo'llari o'rganildi;

- mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati: mehnat ta'limi darslaridan o'yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniqlandi, o'yin texnologiyalaridan foydalanish shakllari va yo'llarini o'rganildi, o'qitish metodikasini ishlab chiqildi.

Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorlik: Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan metodikadan umumiy o'rta ta'lim maktablari IX sinf «Mehnat ta'limi» darslarida qo'llab iqtisodiy samaradorlikga erishish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 5 ta chizma, 2 ta jadvalni o'z ichiga olgan va hajmi 53 sahifani tashkil etadi.

1-BOB. MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

1.1. IX sinf «Servis xizmati» yo'nalishi mazmuni

"Servis xizmati" yo'nalishi bo'yicha o'quvchilar quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ichki bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini, xalq hunarmandchiligida foydalanilayotgan nodir materiallar, asbobuskunalar, hunarmandchilik mahsulotlarni tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta'minlanishiga ko'ra baholashni, kompozitsion yaxlitlikni, xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha mahsulot tayyorlashda uning tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta'minlashni bilish.

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligini, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalishlarida ishlab chiqarish, uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmuni, texnologik hujjatlarning yagona tizimi, uning davlat standartlari, mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasini, olinadigan daromad, uni taqsimlash qoidalarini; ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslari, mehnatni ilmiy tashkil etishni, tabiatni muhofaza qilishni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo'llarini, texnologiya asosida mahsulot namunasini tayyorlashni bilish.

Kasb tanlashga yo'llash: kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarni, kasbni to'g'ri tanlashning mohiyati va istiqbolini, kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olish, kasb tanlashdagi ongillik va mustaqillik, kasblarning murakkablik omillarini tahlil

qilish, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini bilish [2].

"Servis xizmati" yo`nalishi bo`yicha o`quvchilar quyidagi ko`nikmalarga ega bo`lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligi ta`minlanishiga ko`ra baholashni, kompozitsion yaxlitlikni, xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo`nalishi bo`yicha mahsulot tayyorlashda uning tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta`minlay olish.

Ishlab chiqarish asoslari: zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan uzviyligini, gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo`nalishlari bo`yicha ishlab chiqarish, uning mohiyatini, ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro`yxati va ularning mazmuni, maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo`llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo`llarini, texnologiya asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish [2].

Kasb tanlashga yo`llash: kasb tanlashga doir reja tuzishni, kasb tanlashda shaxs kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e`tiborga olish, kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik, kasblarning murakkablik omillarini, kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini tahlil qilish.

"Servis xizmati" yo`nalishi bo`yicha o`quvchilar quyidagi malakalarga ega bo`lishlari kerak:

Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi: xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflashni, xalq hunarmandchiligining tanlangan yo`nalishi bo`yicha mahsulot tayyorlashda uning tashqi shakli uzviyligi va yaxlitligini ta`minlash.

Ishlab chiqarish asoslari: maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo`llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari, ularda shakllangan tejamkorlik

tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash va oshirish yo'llari asosida mahsulot namunasini tayyorlay olish.

Kasb tanlashga yo'llash: Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish. Kasbiy qiziqish va moyilliklarni aniqlash bo'yicha amaliy mashqlar bajarish. Kasb egallash va ishga joylashishga doir shaxsiy rejani referat shaklida tayyorlash va himoya qilish [2].

1.1.-jadval: IX sinflarda mehnat ta'limini "Servis xizmat" yo'nalishi bo'limi taqvim mavzusining quyidagi mavzulari asosida o'qitiladi.

1.1-jadval

Dars soati	Mavzular	Soati	Bilim	Ko'nikma	Malaka
Xalq hunarmandchiligi texnologiyasi					
1-2	Xalq hunarmandlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar	2	Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ishchi bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari bilish	Xalq hunarmandlari tomonidan eksport va ishchi bozor uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarini ajrata bilish	
3-4	Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar	2	Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar nomlarini bilish	Xalq hunarmandchiligida ishlatiladigan asbob-uskunalar larni farqlay olish	
5-6	Hunarmandchilik mahsulotlarini tashqi shakli izchilligiga ko'ra baholash	1 – 4 mavzularni berilgan bilim, ko'nikma va malakalar nazorat ishini o'tkaziladi.			
7-8	Xalq hunarmandchiligida oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tavsiflash	2	Xalq hunarmandchiligida oid tanlangan bitta kasb-hunar turini tasniflanishi bilish	Xalq hunarmandchiligiga oid tanlangan bitta kasb-hunar turini ajrata olish	
9-10	Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha ish usullarini egallash.	2	Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot tayyorlash bo'yicha ish usullarini egallash, loyihalash bosqichida mahsulot	Xalq hunarmandchiligining tanlangan yo'nalishi bo'yicha zamonaviy dizayn talablari bilan uyg'unlashtirilgan mahsulot bo'yicha ish usullarini egallash, loyihalash bosqichida mahsulot tashqi shakli izchilligi va yaxlitligini farqlay olish.	

Ishlab chiqarish asoslari					
11	Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan izchilligi	2	Zamonaviy ishlab chiqarishning bozor munosabati bilan izchilligini bilish.		
12-13	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalish-larida ishlab chiqarish va uning mohiyati. NI – 2	2	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalish-larida ishlab chiqarish va uning mohiyatini bilish.	Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi va pazandachilik asoslari yo'nalish-larida ishlab chiqarish va uning mohiyatini ajrata olish.	
14-15	Ishlab chiqarishni tayyorlashga oid texnologik hujjatlar ro'yxati	2	Ishlab chiqarishni tayyorshada oid texnologik hujjatlar ro'yxati va ularning mazmunini bilish	Ishlab chiqarishni tayyorshada oid texnologik hujjatlar ro'yxatini tuza olish	
16	Ishlab chiqarishning yillik va joriy rejalari	1	Ishlab chiqarishning yillik va joriy rejalarni bilish		
17	Ishlab chiqarishda EHM	1	Ishlab chiqarishda EHMning ahamiyatini bilish	Ishlab chiqarishda EHMLarni farqlay olish.	
18-19	Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish		Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish, o'lchash va taqqoslash texnologiyasi bilish	Tayyor mahsulot sifatini nazorat qila olish	
20	Olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalari		Olinadigan daromad va uni taqsimlash qoidalarini bilish		
21	Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik		Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil etish, tejamkorlik va ishbilarmonlik	Ishlab chiqarish korxonasida mehnatni unumli tashkil eta olish	Tejamkorlik va ishbilarmonlik asoslarini farqlash
22	Tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta'sirdan muhofaza qilish	2	Tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta'sirdan muhofaza qilish	Tabiatni ishlab chiqarishning zararli ta'sirdan muhofaza qila olish	

23-24	Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalari		Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalarini bilish.	Maktab atrofidagi ishlab chiqarish korxonalarida qo'llanilayotgan ishlab chiqarish texnologiyalarini biri-biridan farqlay olish	
25-26	Mehnat unumdorligi omillari. Tejamkorlik va ishbilarmonlik		Ishlab chiqarish korxonalarida shakllangan tejamkorlik tizimi, mehnat unumdorligini hisoblash oshirish yo'llarini o'rganishni bilish.		
Kasb tanlashga yo'llash					
27	Kasb tanlashga doir reja tuzish. Kasb tanlashga tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar.		Kasb tanlashga doir reja tuzish. Kasb tanlashga tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklarni bilish.	Kasb tanlashga doir reja tuzish. Kasb tanlashga tanlashdagi xatolar va qiyinchiliklar-ni bartaraf eta olish.	Kasb tanlashga doir reja tuzish.
28	Kasb to'g'ri tanlash-ning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olish.		Kasb to'g'ri tanlash-ning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini e'tiborga olishni bilish.	Kasb to'g'ri tanlash-ning mohiyati va istiqboli. Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini to'g'ri boshqara olish.	Kasb tanlashda shaxs, kasbiy qiziqish, moyillik va qobiliyat-lar
29	Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillik		Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillikni bilish	Kasb tanlashdagi onglilik va mustaqillikni tanlagan yo'nalishi bo'yicha bo'yicha erisha olish	Kasb tanlashda gi onglilik va mustaqillikka ega bo'lish
30	Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilish		Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilishni bilish	Kasblarning murakkablik omillarini tahlil qilishni bilish	

1.1.-jadval davomi					
31	Kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullari		Kasbga yaroqlilikni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash usullarini bilish	Kasbga yaroqli-likni belgilash va kasbga moyillikni tarbiya-lash usullarini tarbiyalay olish	Kasbga yaroqlilik-ni belgilash va kasbga moyillikni tarbiyalash
32	Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlangan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilish		Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlan-gan kasb-hunarga doir ma'lumotlar to'plash va tahlil qilishni bilish	Kasbga doir shaxsiy reja tuzish. Tanlan-gan kasb-hunarga doir ma'lumot-lar to'plash va tahlil qila olish	Kasbga doir shaxsiy reja tuzish.
33	O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi. Akademik listeylar va kasb-hunar kollejlari-ning yo'nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlari		O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimi. Akademik listeylar va kasb-hunar kollejlari-ning yo'nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomon-lari. O'quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish tizimini bilish.	Akademik listeylar va kasb-hunar kollej-larining yo'nalishi, ularning bir-biridan farqi, umumiy tomonlari farqlay olish	Akademik listeylar va kasb-hunar kollejlari-ni yo'nalishi, ularning bir-biridan farqlash
34	"Men tanlagan kasb-davra" suhbat		Kasb tanlashga doir shaxsiy rejani referat shaklida tayyorlash va himoya qilishni bilish.	Kasb tanlashga doir shaxsiy rejani referat shaklida tayyorlash va himoya qila olish	Kasb tanlashga doir shaxsiy rejani referat shaklida tayyorlash

IX sinflarda mehnat ta'limi haftasiga 1 soatdan, o'quv yilida jami 34 soat o'qitilishi rejalashtirilgan.

1.2. Didaktik o'yin texnologiyalari mazmun-mohiyati

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda kata ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi [4].

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan alohida foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. O'yinlar maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ladi [4].

Natijada, oldingi asrning 60 –yillari boshidan AQShda, so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshladi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejamli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar.

Didaktik o'yinlarning yana bir turi – aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb nomlagan. U muammolarni quyidagicha yechishga asoslanadi:

-muammoli vaziyat yaratish:

-g'oyalarni shakllantirish:

-eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va uni yechish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi.

Didaktik o'yin texnologiyasi tushunchasi. **Didaktika** (grekcha “didaktikos” – o'qituvchi, “didako” o'rganuvchi), **texnologiya** – qo'yilgan maqsadga erishish yo'lida qo'llaniluvchi usul, metod va ta'sirlar majmuasi (zamonaviy g'arb sotsiologiyasi ta'rifi).

Didaktik o'yin texnologiyalari maqsadi: bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishning shaxsiy faoliyati tavsifida bo'lishini ta'minlash.

Mohiyati: o'quv axborotlarini qayta ishlash va o'zlashtirishga yo'naltirilgan mustaqil bilish faoliyati.

Mexanizmi: o'quvchilarni ijodiy faoliyatiga jalb etishning o'yin metodlari.

Didaktikaning asosiy turkumlari o'qitish, o'rganish, o'rgatish, ta'lim berish, bilim, bilish, ko'nikma, shuningdek maqsad, mazmun, tashkil qilish, turlar, shakllar, metodlar, vositalar, o'qitishdan iborat bo'lib, didaktika – o'rgatish va ta'limning maqsadi, mazmuni, metodlari, vazifalari, ta'limni tashkil qilish, erishilgan natijalar to'g'risidagi fandir.

Didaktik o'yin texnologiyasi – bu ta'lim berish jarayonida, ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida, usul va metodlar majmuasini, o'quvchilarga o'yin yordamida ta'limni tashkil etishga qaratilgan.

Didaktik o'yin jarayonida o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his – tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ayniqsa, o'yin jarayonida ularning idroki, zexni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va extiyoji mustaxkamlana boshlaydi, ziyrakligi, diqqati, topqirligi, ortib boradi. O'quvchilarning istedodi, ijodiy, qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi.

Didaktik o'yin texnologiyasi, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida maktabgacha ta'lim, boshlangich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, akademik listey va kasb – hunar kollejlarda va oliy ta'limda, ta'lim(tarbiya) samaradorligini oshirish va aniq bir maqsadga erishish uchun didaktik o'yin texnologiyasini qo'llash metodlari, shakl va usullarini tatbiq etish maqsadiga qaratilgan. Bu davrda bola atrof muhitni o'rganish, turli xil eshitgan ertaklarini obrazlarini yaratish, yaxshi – yomonni ajrata boshlaydi [9].

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim(tarbiya)ni yosh hususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak, didaktik o'yinlar ko'rgazmalilik va o'yinga qaratilgan bo'lib bu davrda, bolani toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga didaktik o'yin metodlari turli xilma – xil tarzda tashkil etish mumkin. Qo'g'irchoqlar, rasmlar, tarqatma materiallar va turli xil geometrik shakllardan foydalanish mumkin [8].

“O'yla, top” o'yini. Bu o'yin boshlang'ich sinf va undan yuqori sinf o'quvchilari bilan o'tkazilishi maqsadga muvofiq. Mazkur o'yinda ma'lum bir kasbga oid so'zlar olinib, boshlovchi biror kasb egasiga taqlid qilib xarakat qiladi, o'yin ishtirokchilari bu xarakat qaysi kasbga oid so'zni ifodalashini topishlari kerak. Bekitilgan so'z kartochkaga yozilgan bo'lib, so'zni to'g'ri topgan o'quvchiga ko'rsatiladi. Albatta, to'g'ri javob topgan o'quvchilar g'olib bo'ladi [4].

“Kim ko'p so'z biladi” o'yini. Ushbu o'yin xam o'quvchilarning lug'at boyligini o'stirishga katta yordam beradi. Buning uchun sinf 2 guruxga bo'linadi va xar gurux bir uchun aloxida topshiriq beriladi. 1-gurux o'quvchilariga ikki tomoni bir xil unli bilan yoziladigan, ikkinchi guruxga esa ikki tomoni bir xil undosh yoziladigan, so'zlarni doskaga yozish topshiriladi. Masalan: 1-gurux: ikki, alla kabi. 2-gurux: qiziq, katak kabi. Xar bir gurux o'quvchilari birma-bir chiqib, so'zlarni yozadilar. So'z topolmay to'xtagan gurux yutqazgan xisoblanadi [4].

“Kim nima qiladi?” o'yini. O'quvchilar 2 guruxga bolinib, doska yoniga xar bir guruxdan bittadan o'quvchi taklif etiladi. Doskaga birinchi gurux ishtirokchisi “kim?” so'rag'iga javob bo'ladigan so'zlarni yozsa, ikkinchi gurux

ishtirokchisi “nima qiladi?” so’rog’iga javob bo’ladigan so’zlarni yozsa, ikkinchi guruh ishtirokchisi “nima qiladi?” so’rog’iga javob bo’ladigan so’zlarni yozadi. Natijada yig’iq gaplar vujudga kelishi kerak:

1 – guruh Shifokor, davolovchi, vrach, o’qituvchi, o’quvchilar, qishloq, shamol, gullar, paxta, yomg’ir, quyosh.

2 – Davolaym, shifo beradi, o’qitadi, o’quvchilar, sayraydi, esadi, o’sadi, ochiladi, yog’adi, isitadi.

Qolgan ishtirokchilar esa gaplarni daftarlariga ko’chirib oladilar. Bunda o’quvchilarning yozma savodxonligi ham hisobga olinadi. Qaysi guruh a’zosi topshiriqni bexato bajarsa, shu guruhga “rag’bat” kartochkasi beriladi. Iqtidorli ilg’or o’quvchilarga ushbu ish turini ijodiy davom ettirish, ya’ni so’zlarning sinonimlari vositasida boyitishga yordam beradi.

“Kim tezroq?” o’yini. Har bir guruh a’zosiga yig’iq gaplar beriladi. O’quvchilar esa ushbu gaplarni yoyiq gaplarga aylantirib, daftarlariga yozishlari lozim. Bahor. Daraxtlar gullaydi. Gullar ochiladi. Qushlar sayray boshlaydi. Navro’zi olam kirib keldi. Doshqozonlar qaynaydi. Sumalaklar pishadi. Mashqni hammadan tez, to’g’ri va bexato bajargan o’quvchi yuqori baho yoki ball qo’yib rag’batlantiriladi.

“Gapni davom ettir” o’yini. Bu o’yinning qoidasiga ko’ra, bir o’quvchi bitta qisqa gap aytadi, boshqa o’quvchi aynan shu gapga so’z qo’shib boraveradi. Masalan:

1 – o’quvchi: Men ko’ylak tikdim.

2 – o’quvchi: Men chiroyli ko’ylak tikdim .

3 – o’quvchi: Men kecha chiroyli ko’ylak tikdim va h.k.

Qaysi o’quvchi so’z qo’sha olmasa yoki xatoga yol qo’ysa, o’yinni tark etadi. 6 – 7 daqiqalik o’yin mobaynida ishtirokchi bo’lib qolgan o’quvchilar g’olib bo’ladilar va baholanadilar.

“Maslahat zanjiri” o’yini. Bunda o’quvchilar bo’sh vaqtni o’tkazish uchun taklif kiritishlari, ya’ni ularning har biri bugun kechqurun, ertaga tushdan keyin yoki dam olish kunlari nima bilan shug’ullanishlarini aytishlari kerak.

Masalan:

1 – o'quvchi kechkurunlari men musiqa bilan shug'ullanaman.

2 – o'quvchi: Men esa bobom bilan shaxmat o'ynayman.

3 – o'quvchi...

4 - o'quvchi: Men esa...

Kim o'z taklifini to'g'ri ayta olmasa yoki aytilgan fe'lni takrorlasa, o'yindan chiqadi. O'yinda oxirigacha qolgan g'olib bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quvchilar aqlini charxlaydi, so'z boyligining oshishi, og'zaki nutqining rivojlanishida, mukammal inson bo'lib kamol topishida g'oyat katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega [8].

Didaktik o'yinlar jarayonida, o'quvchilar o'yin qoidalariga qat'iy rioya qilishga o'rganadilar, inoqlik his – tuyg'ulari, dunyoqarashlari shakllanib boradi. Ayniqsa o'yin jarayonida ularning idroki, zehni, xotirasi, bilim olish ishtiyoqi va ehtiyoji mustahkamlana boshlaydi, ziyrakligi, diqqati, topqirligi ortib boradi. O'quvchilarni iste'dodi, ijodiy qobiliyati namoyon bo'la boshlaydi.

Ta'lim jarayonida didaktik o'yinlar o'quvchilarning yosh hususiyatiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Bu esa ularga bilim berishni yengillashtirishga, ko'rgazmalilikni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarni toliqtirmaslik, zeriktirmaslik imkoniyatini yaratadi. Didaktik o'yinlar xilma – xil tarzlarda tashkil qilish mumkin. Qo'g'irchoqlar, o'yinchoqlar, rasmlar va tarqatmalar, turli geometrik shakllardan ham foydalanish mumkin [9]. Didaktik o'yinlar maqsadiga ko'ra 4 omilni o'z ichiga oladi.

1.O'yinning vazifasi.

2.O'yinning harakati.

3.O'yinning qoidasi.

4.O'yinning yakuni.

Har bir didaktik o'yinni boshlashdan oldin o'quvchilarga o'yinning qoidasi, mazmuni, yakuni nimadan iborat ekani o'qituvchi tomonidan tushintiriladi. O'quvchilar uni tushunib, anglab, shu asosda harakat qiladilar.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi va rivojlantirishning amaliy echimlarini aniqlash va amalga oshirishda kata ahamiyatga ega.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularning turli yo'nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Didaktik o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Hozirda kompyuter vositasidagi didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega [7], [8].

Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sanash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob o'rgatish, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Didaktik o'yinlardan alohida foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko'zda tutiladi. Turli o'quv fanlariga oid didaktik o'yinlar mavjud bo'lib, ular shu fanlarni sifatli o'rgatish maqsadlariga xizmat qiladi.

Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar alohida ahamiyatga ega. O'yinlar maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa

pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o'yinlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo'ladi.

Natijada, oldingi asrning 60 –yillari boshidan AQShda, so'ngra boshqa g'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshladi. Ishchanlik o'yinlari tadqiqotchilari bu usulni eng asosiy, samarali va tejimli ta'lim metodlaridan iborat deb ta'kidlaganlar [9].

Didaktik o'yinlarning yana bir turi – aqliy hujum usulini birinchi marta 1939 yilda A.F.Osborn qo'llagan. Bu usulni g'oyalar banki deb nomlagan. U muammolarni quyidagicha echishga asoslanadi:

- muammoli vaziyat yaratish:

- g'oyalarni shakllantirish:

- eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va uni yechish bo'yicha iloji boricha ko'p, ba'zan, batamom kutilmagan g'oyalarni berish uchun eng qulay sharoit yaratilishi aqliy hujum mashg'uloti samaradorligini belgilaydi.

1.3. Rolli-ishbop hamda ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi

Rolli o'yin – qatnashchilarning tajribasini kengaytirish metodi bo'lib, ularni kutilmagan vaziyatga duch qilish orqali shu vaziyatda qatnashchilardan kimningdir rolini ijro etish taklif etiladi, shu orqali vaziyatning mos intixosini topadigan metod ishlab chiqishga erishiladi. Rollar o'yini nazariyasi mashhur amerikalik tadqiqotchi Dj.Moreno aytganidek, role so'zi lotincha rotula (kichik g'ildirak yoki g'o'la) so'zidan olingan bo'lib, keyinchalik pesaning aktyor uchun qog'ozga yozigan va dumaloq naycha qilib o'ralgan varaqdagi so'zlari edi [4]. Faqatgina XVI-XVII asrga kelib bu so'z aktyorlar o'yini ma'nosini anglata boshladi. Rolli o'yinlar tushunchasi XX asrda yuzaga keldi. Rolli o'yinlar vaqtinchalik qatnashchining boshqa kishining rolini o'ynashni, yoki o'zini boshqa vaqt oralig'ida ko'rsatishini ko'zda tutadi. Kishi rolni qabul qilganidan keyin shu roldagi personaj kabi xis qilishga, harakat qilishga va o'zini ko'rsatishga harakat qiladi. Boshqa

qatnashchilar biron bir maqsad bilan rol o'ynayotganlarini kuzatadilar. Ishning bunday shakli turli maqsadlarda qo'llaniladi.

Ayni vaqtda ta'limni tashkil etishda rol hamda ishbop o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarining atrof – muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oshirib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rol hamda ishbop o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi [9].

O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorligini ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z – o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o'quvchilarda muayyan ahloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

O'yinni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir:


- ta'limiy (didaktik) maqsad;
- tarbiyaviy maqsad;
- faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad;
- ijtimoiy maqsad.

S.Kallaganning ta'qidlashicha, rol o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilar:

- Jamoa a'zolari o'rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;
- o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yilishini inkor etadi;

- o'qituvchi va o'quvchilarning erkin, bemaolol, o'ziga ishongan holda, hotirjam harakat qilishlariga erishish;

- sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi(shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik); - sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchilarning o'yin faolligiga ta'sir qilmaslik;



1.1-chizma: Pedagogik o'yin tuzilmasi


Ta'lim jarayonidagi o'quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib koladi. O'quvchining faolligi, maqsadi yo'naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta'sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natijasidir. O'quvchilarning faolligini ta'minlovchi, o'qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. O'yin faoliyatiga qiziqish, o'quvchilarning o'z-o'zini ifoda etish, ro'yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi [8].

O'yinning ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida ham rivojlanish ham o'rganish hisoblanadi.

Pedagogik o'yin, o'qitishning aniq qo'yilgan maqsadi va unga tegishli pedagogik natija bilan belgilanadi. Bu natijalar asoslangan va o'quv tayyorgarlik faoliyatiga ega bo'ladilar. Pedagogik o'yinlarning blok-sxemasi 1.2-chizmada keltirilgan.

Pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo'yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitastion, dramalashtirilgan o'yinlar. Oliy,

o'rta maxsus va kasb-hunar ta'lim tizimida foydalanadigan barcha pedagogik o'yinlar o'z mazmuniga ko'ra ishbilarmonlik o'yini hisoblanadi. Chunki ular, odatda ma'lum o'quv fani doirasida ishlab chiqiladi: rollar va syujetlar mavjud bo'ladi, turli vaziyatlar immitatsiya qilinadi [14], [15].



1.2-chizma: Pedagogik o'yinlar tasnifi

Ya'ni, oliy va o'rta maxsus kasb-hunar ta'lim tizimida qo'llaniladigan ishbilarmonlik o'yinlari pedagogik o'yinlarning barcha tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim tizimidagi pedagogik o'yinlar yangi o'quv materialini o'zlashtirishga va mustahkamlashga, o'quvchining ijodiy qobiliyatini rivojlantiruvchi, umumilmiy ko'nikmalarini shakllantiruvchi masalalar majmualarini yechishga qaratiladi, o'quvchilarga turli holatlardan o'quv materialini tushunib yetish va o'rganish imkonini beradi. O'quv jarayonida ishbilarmonlar o'yinlarni turli xil shakllari ishlatiladi: imitatsion, operatsion, rolli o'yinlar, ishchi teatr, psixo va sostiodramalar.

Ishbilarmonlik o'yini (IO') o'zida mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatining predmeti va ijtimoiy mazmunini tiklash shaklini mujassamlashtiradi, faoliyat yaxlitligini belgilovchi shunday munosabatlar tizimini modellashtiradi.

Belgili vositalar (til, nutq, grafiklar, jadvallar, hujjatlar) yordamida, ishbilarmonlik o'yinida asosiy muhim belgilariga ko'ra haqiqiy vaziyatga o'xshash kasbiy vaziyat vujudga keltiriladi. Shu bilan birga ishbilarmonlik o'yinida, qisqa vaqt ichida faqat turdosh umumiy vaziyatlar qayta tiklanadi.

Ishbilarmonlik o'yini kelajakdagi kasbiy faoliyatning predmetli jihatini (shartli amaliyot) talabalarning boshqa rolli holatdagi vakillar bilan o'zaro muloqotda bo'luvchi ijtimoiy jihatini vujudga keltiradi. Shunday qilib, ishbilarmonlik o'yinida jamoaviy o'quv faoliyatning yaxlit shakli – ishlab chiqarish, kasbiy faoliyati sharoiti modelida yaxlit ob'ektda amalga oshiriladi.

Ishbilarmonlik o'yinida talaba o'zida o'quv va kasbiy elementlarni uyg'unlashtirgan o'xshash kasbiy faoliyat bajaradi. Bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirilishi abstrakt darajada emas, balki kasbiy mehnat kontekstida amalga oshadi. Kontekstli o'qitishda bilimlar kelajak uchun bekorga emas, balki o'quvchining real o'yin jarayonidagi harakatini ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida, o'quvchi kasbiy bilimlar bilan qatorda maxsus xislatga – odamlar bilan muloqotda bo'lish va boshqarish, jamoaviy qarorlar qabul qilish malakalari, rahbarlik qilish va bo'ysunish ko'nikmalariga ega bo'ladi. Ya'ni, ishbilarmonlik o'yini shaxsiy

sifatlarni tarbiyalaydi, ijtimoiylashuv jarayonini jadallashtiradi. Ammo bu «jiddiy» kasbiy faoliyat o'yin shaklida ro'yobga chiqarilganligi sababli, o'quvchi aqliy va hissiy jihatdan erkinlashadi, ijodiy tashabbusini namoyon etadi [4].

Ishlab chiqarish dinamikasi, mutaxassislarning harakatlari va munosabatlarini modellashtirib, o'xshatib, ishbilarmonlik o'yini, bilimlarni dolzarblashtirish, qo'llash va mustahkamlash vositasi va amaliy fikrlash vositasi sifatida xizmat qiladi. Ushbu holat, o'yinning ma'lum berilgan aniq vaziyatida yoki ishlab chiqarish vaziyatida ishtirokchilarning o'zaro munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Ishbilarmonlik o'yini o'xshatma modelda o'yinli o'quv masalalarini qo'yish va yechish bo'yicha qo'shma faoliyat kabi ro'yobga chiqariladi [16]. Qo'shma faoliyat qoidalari va me'yorlari, o'xshatish tili va aloqalar oldindan qabul qilinadi yoki o'yin jarayonida ishlab chiqiladi. Ishbilarmonlik o'yini munozarali muloqot maromida o'tkaziladi, u qo'shrejali faoliyat hisoblanadi, chunki unda ikkita maqsadga erishiladi: o'yinli va pedagogik. Pedagogik faoliyat ustuvor bo'lsa ham, o'yinni poymol etmasligi kerak.

O'yin jarayonida quyidagilar o'zlashtiriladi:

-kasbiy harakatlar me'yorlari;

-ijtimoiy harakatlar me'yorlari - ishlab chiqarish jamoasidagi munosabatlar.

Bunda o'yinning har bir ishtirokchisi faol holatda bo'ladi, sheriklari bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, o'z qarashlarini sheriklariniki bilan taqqoslaydi va shuning natijasida jamoa bilan munosabati orqali o'zini o'zi o'rganadi.

Imitatsion o'yinlar - bo'lim, stex, korxona tashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Imitastion o'yinlar senariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va ob'ektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o'z ichiga oladi [4].

Operatsion o'yinlar - tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma'lum bir o'ziga xos operatsiyalarni: - masalalar yechish, ma'lum bir usulni o'zlashtirishga yordam beradilar [4].

Rolli o'yinlar - ma'lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi [4].

Ishbilarmonlik teatri - qandaydir bir vaziyat va bu vaziyatdagi odamni xatti-harakati ishlab chiqiladi. Vaziyatning tafsiloti, ishtirok etuvchilarning vazifa va majburiyatlarini, maqsadlari ko'rsatilgan senariy tuziladi. Bu yerda, ma'lum shaxsning haqiqiy qiyofasiga kirib borish, uning xatti-harakatlarini anglash, vaziyatni baholash va to'g'ri xatti-harakatni tanlash, muhim hisoblanadi [4].

Psixodrama va sostiodrama - bu rolli o'yinga, ishbilarmonlik teatriga o'xshagan bo'lib, faqat bu erda sotsial-psixologik masalalar yechiladi. Bunday masalalar jumlasiga jamoadagi vaziyatni his qila olish, boshqa kishini ruhiy holatini to'g'ri baholash va uni o'zgartira olish, u bilan unumli muloqotga kira olish kiradi [4].

O'yinni tayyorlash bosqichi. Bu bosqich o'z navbatida ikki qismdan iborat: o'yinni ishlab chiqish, o'yinga kirishish. O'yinni ishlab chiqish - o'yin senariysini ishlab chiqish, yo'riqnomalar tuzish va moddiy ta'minotni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Ishbilarmonlik o'yini, senariysi quyidagilardan iborat: o'quv maqsadi; o'yin vazifasi, o'rganiladigan muammo tafsiloti; vaziyatning tafsiloti va ishtirok etuvchilarning tasnifi. O'yinga kirishish quyidagilarni anglatadi:

- guruhni shakllantirish;
- mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash;
- muammo va vaziyatni vujudga keltirish;
- rollarni taqsimlash,
- o'yin reglamentini o'rnatish;
- materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish;
- maslahatlar berish.

“Ishbop o'yin” metodi – berilgan topshiriqlarga ko'ra yoki o'yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarni qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi.

O'yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining xulq-atvori va ijtimoiy vazifalarni imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o'yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko'ra ishtirokchilar o'z faoliyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Ishbop o'yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo'ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat'iy belgilangan va o'yin davomida o'zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari va bilimlari asosida o'z maqsadlarni belgilaydi. Ishbop o'yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruh xarakterga ega. Har bir ishtirokchi avval o'zining vazifasi bo'yicha qaror qabul qiladi, so'ngra guruh bilan maslahatlashadi. O'yin yakunida har bir ishtirokchi va guruh erishgan natijalariga qarab baholanadi [4]. Quyida "Ishbop o'yin" metodining tuzilmasi keltirilgan.

- O'yin shartlari va baholash mezonlari bilan tanishtirish;
- Vazifalarni taqsimlash;
- Vazifalar bo'yicha ishtirokchilar qaror qabul qiladilar;
- O'yinni amalga oshirish;
- Muhokama qilish; baholash.

"Ishbop o'yin" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Ta'lim beruvchi mavzu tanlaydi, maqsad va natijalarni aniqlaydi. Qatnashchilar uchun yo'riqnomalar va baholash mezonlarini ishlab chiqadi.
2. Ta'lim oluvchilarni o'yinning maqsadi, shartlari natijalarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi.
3. Ta'lim oluvchilarga vazifalarni taqsimlaydi, maslahatlar beradi.
4. Ta'lim oluvchilar o'z rollari bo'yicha tayyorgarlik ko'radilar.
5. Ta'lim oluvchilar tasdiqlangan shartlarga binoan o'yinni amalga oshiradilar. Ta'lim beruvchi o'yin jarayoniga aralashmasdan kuzatadi.
6. O'yin yakunida ta'lim beruvchi muhokamani tashkil etadi. Ekspertlarning xulosalari tainglanadi, fikr-mulohazalar aytiladi.
7. Ishlab chiqilgan baholash mezonlari asosida natijalar baholanadi [4].

Har bir rolni ijro etuvchi o'z vazifasini to'g'ri bajarishi, berilgan vaziyatda o'zini qanday tutishi kerakligini namoyish eta olishi, muammoli holatlardan chiqib ketish qobiliyatini ko'rsata olishi kerak.

I. TAYYORLASH BOSQICHI

1.1.	Senariyani ishlab chiqish
O'yinni ishlab	Yo'riqnoma mazmunini ishlab chiqish
chiqish	Moddiy ta'minotni tayyorlash
	Guruhni shakllantirish
1.2.	Rollar taqismoti
O'yinga	Muammo va maqsadlarni vujuga keltirish
kirishish	Shartlar, qoidalar, reglament o'rnatish
	Maslahatlar berish

II. O'TKAZISH BOSQICHI

2.1.	Manbalar bilan ishlash
Topshiriq	Trening
ustida guruh	Miyalar hujumi
bilan ishlash	O'yin texniki bilash ishlash
2.2.	Guruhlarning chiqishi
Guruhlararo	Natijalarni himoya qilish
munozaara	Munozara qoidasi
	Taqrizchilar (ekspert) ishi

III. TAHLIL BOSQICHI

3.1.	O'yindan chiqarish
3.2.	Tahlil
3.3.	Ishni baholash va o'ziga baho berish
3.4.	Xulosa va umumlashtirish
3.5.	Tavsiyalar

1.3-chizma. Ishbilarmonlik o'yinning texnologik sxemasi

“Ishbop o’yin” metodining afzalliklari:

- Ta’lim oluvchilarning bilimlarini va tajribalarini, qarashlari va xulqlari orqali ifoda etishga yordam beradi;
- Ta’lim oluvchining boshlang’ich bilimlari tajribalarini safarbar etish uchun yaxshi imkoniyat yaratiladi;
- Ta’lim oluvchilar o’z bilimlari doirasidan kelib chiqqan holda imkoniyatlarini namoyish etishlari uchun sharoit yaratadi [4].

“Ishbop o’yin” metodining kamchiliklari:

- Ta’lim beruvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi; vaqt ko’p sarflanadi;
- Tanlangan mavzu ta’lim oluvchining bilim darajasiga mos kelishi talab etiladi;
- Ta’lim oluvchining his-hayajoni to’g’ri qaror qabul qilishga xalaqit berishi mumkin [4].

Ishbilarmonlik o’yini texnologiyalari uch bosqichdan iborat (1.3-chizma).

Rollar qur’a tashlash yo’li bilan taqsimlanadi. Reglamentga, muloqot etikasiga, faollikni namoyish etishga va o’yinni oxirigacha ishtirok etilishiga alohida e’tibor qaratiladi.

O’yinni uqkazish bosqichi. Bu bosqich - guruh bilan vaziyatni barpo etish ishlari va guruhlararo munozaradan iborat. Ishtirokchilarning roliy holatlari, ishbilarmonlar o’yinini shakliga bog’liq va quyidagicha bo’lishi mumkin.

1) guruhdagi ish mazmuniga ko’ra – g’oyalarni yaratuvchi va uzatuvchi ishlab chiquvchi, taqlidchi, tashxischi, zukko, xulosa qiluvchi.

2) ishtirokchilarning tashkiliy vaziyatlariga ko’ra – tashkilotchi, muvofiqlashtiruvchi, yig’uvchi, nazoratchi, murabbiy, boshqaruvchi.

3) yangilikka nisbatan munosabatiga ko’ra – tashabbuskor, ehtiyotkor tanqidchi, yangilikka qarshilik ko’rsatuvchi (konservator).

4) uslubshunoslik holatiga ko'ra – uslubshunos tanqidchi, uslubchi, muammochi, dasturchi.

5) ijtimoiy-psixologik holatiga ko'ra – etakchi, hurmat qilinuvchi, qabul qilinuvchi, mustaqil, qabul qilinadigan, rad etiluvchi [15].

O'yin jarayonida hech kim o'yinga ta'sir qilish huquqiga ega bo'lmaydi. Faqat boshlovchigina, zaruriyat tug'ilganida, o'yin ishtirokchilari harakatlariga tuzatishlar kiritishi mumkin.

O'yin natijalarini taxlil etish bosqichi quyidagilarni o'z ichiga oladi: taqrizchilarni chiqishlari, fikrlar almashinuvi, ishtirokchilarning o'z qarorlari va xulosalarini himoya qilishi, yakun yasash.

Xulosa

Mazkur bobda IX sinf «Servis xizmati» yo'nalishi mazmuni bo'yicha o'quvchilar egallashlari lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari, didaktik o'yin texnologiyalari mazmun-mohiyati, didaktik o'yin omillari, rolli-ishbop hamda ishbilarmonlik o'yinlari texnologiyasi, pedagogik o'yin tuzilmasi, "Ishbop o'yin" metodining o'tkazish tartibi, afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida bayon qilingan.

2-BOB. MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

2.1. Ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalar foydalanish

Ta'lim oluvchining o'quv jarayonidagi egallagan bilimlaridan, kasbiy malakalari va ko'nikmalaridan hissiy qoniqish va undan quvonch hissini hosil qilishi lozim. Bunday vazifalarni hal qilishda o'qitish jarayonida o'yinli texnologiyalardan foydalanish ulkan ahamiyat kasb etadi. O'yinli texnologiyalarda o'qitishning faol metodlaridan foydalanish muloqotning demokratik uslubi yutuqlaridan foydalanishga xizmat qiladi, talabalarning ijodiy kuchlari va qobiliyatini o'stiradi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini ta'lim oluvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi [12], [13].

O'yin olimlar tadqiqotlariga ko'ra mehnat va o'qish bilan birgalikda faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rnini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga tayanadi. O'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda, faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi [8].

Psixologlar ta'kidlaydilar ki, o'yinga kirishib ketish qobiliyati kishi yoshiga bog'liq emas, lekin har bir yoshdagi shaxs uchun o'yin o'ziga xos bo'ladi.

O'yinli faoliyat muayyan **funktsiyalarni** bajarishga bag'ishlangan bo'ladi:

- maftunkorlik;
- kommunikativlik;
- o'z imkoniyatlarini amalga oshirish;
- davolovchilik;
- tashxis;
- millatlararo muloqot;
- ijtimoiylashuv.

O'yin ijodiyligi bilan ajralib turadi. U mumkin qadar boy, faol xarakterga – «ijod maydoni»ga ega bo'ladi. O'yin uchun hissiy ko'tarinkilik xosdir. U o'zaro kurash, musobaqalashish, raqobat shaklida namoyon bo'ladi. O'yinning o'yin mazmunini aks ettiruvchi, uni rivojlantirishning mantiqiy va vaqtincha izchilligini ko'zda tutgan bevosita tegishli va unga nisbiy aloqador qoidalari bo'lishini ko'rsatadilar.

Tadqiqotchilar nazariy aspektda o'yinga ***faoliyat, jarayon va o'qitish metodi*** sifatida qaraydilar.


O'yin ***faoliyat*** sifatida maqsadni belgilab olish, rejalashtirish va amalga oshirish, natijalarni tahlil qilishni qamrab oladi va bunda shaxs sub'ekt sifatida o'z imkoniyatlarini to'la amalga oshiradi. O'yinli faoliyatni motivatsiyalash o'yin xarakterining musobaqalashish shartlari, shaxsning o'zini namoyon qila olishi, o'z imkoniyatlarini amalga oshirish ehtiyojlarini qondirishdan kelib chiqadi [4], [9].

O'yindan tushunchalar, mavzu va hatto o'quv predmeti bo'limini o'zlashtirishda ***o'qitish metodi va mustaqil texnologiya*** sifatida foydalaniladi.

O'yin bilish va uning bir qismi - kirish, mustahkamlash, mashq va nazorat - tarzida tashkil etiladi. O'yinlar ***turli maqsadlarga*** yo'naltirilgan bo'ladi. Ular ***didaktik, tarbiyaviy, faoliyatni rivojlantiruvchi va ijtimoiylashuv*** maqsadlarda qo'llanadi:

-o'yinning didaktik maqsadi bilimlar doirasi, bilish faoliyati, amaliy faoliyatida bilim, malaka va ko'nikmalarni qo'llash, umumta'lim malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish, mehnat ko'nikmalarini rivojlantirishni kengaytirishga qaratilgan bo'ladi.

-o'yinning tarbiyaviy maqsadi mustaqillik, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, nuqtai nazarlar, ma'naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, kollektivizmni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga qaratilgan bo'ladi [4].



2.1-chizma: Pedagogik o'yinlar tasnifi

-faoliyatni rivojlantiruvchi o'yinlar diqqat, xotira, nutq, tafakkur, qiyoslash malakasi, chog'ishtirish, o'xshashini topish, faraz, xayol, ijodiy qobiliyat, empatiya, refleksiya, optimal yechimni topa olish, o'quv faoliyatini motivatsiyalashni rivojlantirishga qaratilgan.

-ijtimoiylashuv o'yinlari jamiyatning me'yorlari va qadriyatlariga jalb qilinish, muhit sharoitlariga ko'nikish, ehtirolarni nazorat qilish, o'z-o'zini boshqarish, muloqotga o'rgatish, psixoterapiyani nazarda tutadi [4].

Pedagogikaga oid adabiyotlarda pedagogik o'yin degan tushuncha mavjud.

Pedagogik jarayonni tashkil etishning bir qator metodlari va usullari hamda turli shakldagi pedagogik o'yinlar «O'yinli pedagogik texnologiyalar»ni tashkil etadi. Pedagogik o'yinda ta'limning pedagogik maqsadlari aniq qilib qo'yiladi. Pedagogik o'yinlar asosida talabalarni o'quv faoliyatiga yo'llovchi o'yinli usullar va vaziyatlarni vujudga keltirish yotadi. O'yinli texnologiyalardan foydalanishning asosini talabalarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etadi.

Tadbirkorlik o'yinlari texnologiyasi - bu texnologiya tayyorgarlik davrini ham o'z ichiga oladi. U senariyni yozib chiqish, vaziyat va ob'ektlarni shartli belgilar asosida tasvirlashdan boshlanadi [4]. Senariy mashg'ulotning o'quv maqsadi, o'rganilayotgan muammoning tavsifi, qo'yilgan vazifani asoslash, O'yinning rejasi, vaziyatning mazmuni va qatnashuvchi shaxslarning tavsifini o'z ichiga oladi:

o'yinga kirishish - bu bosqichda ish rejimi aniqlanadi, mashg'ulotning bosh maqsadi shakllantiriladi, muammoni qo'yish va vaziyatni tanlash asoslanadi;*o'tkazish bosqichi* - o'yin jarayonidir; uyin boshlangach, hech kim unga aralashmaydi va uning borishini o'zgartira olmaydi. O'yinni faqat uni boshqaruvchi tuzatib borishi mumkin;

-tahlil bosqichi - uyin natijalari muhokama qilinadi va baholanadi, bu bosqichda ekspertlarning fikrlari eshitiladi, o'zaro fikr almashinadi, talabalar o'z xatti-harakatlari va xulosalarini himoya qiladilar.

Tadbirkorlik o'yinlarining texnologik chizmasi

Tayyorgarlik bosqichi	O'yinni ishlab chiqish	-senariy yaratish -tadbirkorlik o'yini rejasi -O'yinning umumiy mazmuni -yo'l-yo'riqlar mazmuni -moddiy ta'minot tayyorgarligi
	O'yinga kirishish	-muammo, maqsadni aniqlab olish -shartlari, yo'l-yo'riqlar berish -reglament, qoidalar -rollarga taqsim qilish -guruhni shakllantirish -maslahat (konsultastiya)

Tayyorgarlik bosqichi	Vazifani guruh bO'lib ishlab chiqish	-manbalar bo'yicha ishlash -trenting -«fikrlash hujumi» -O'yin texnikasi ustida ishlash
	Guruhlararo munozara	-guruhlarning chiqishlari (fikrlari) -natijani himoya qilish -munozara qoidasi -ekspertlar ishi

Tahlil va umumlashtirish bosqichi	-O'yinni to'xtatish -tahlil, refleksiya -O'yinni baholash va o'z-o'zini baholash -xulosalar va umumlashtirishlar -tavsiyalar
-----------------------------------	--

Shunday qilib, tadbirkorlik va evristik o'yinlar *bo'lg'usi mutaxassisning ilmiy-ijodiy tajribalarini rivojlantirish* uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

-ijodiy guruhdagi barcha ishtirokchilarning faolligi sathida shu guruhning o'ziga xos katalizatorlik vazifasini bajaruvchi «faollashtiruvchilar»;

-ilmiy muammoning echimiga yordam beradigan yo'llar va betakror fikrlar taklif qiluvchi «g'oyalar ishlab chiquvchi» talabalar;

-g'oyalarning tug'ilishiga va ularning boshqa ijodiy guruh a'zolari tomonidan idrok qilinishiga yordam beradigan «rezonator», ya'ni tarqatuvchi talabalar;

-muammoni echishning eng optimal variantini qayta ishlab chiqish va topish bilan band bo'lgan «nazoratchi» talabalar [4].

O'yin jarayonida tortishish, musobaqalashish, bahs-munozara yuritish ruhiyatining bo'lishini ta'minlash zarur. O'yin o'tkazish chog'ida «buyurtmachi» rolini bajaruvchi rahbar u yoki bu tadbirlarning bajarilish sifatiga va bu tadbirlarda rol ijro etgan (qatnashgan, ishtirok etgan) talabalarga baho beradi. Shu baholar asosida butun guruhning hamda alohida talabalarning rol ijro etishi bahosi chiqariladi. Ijodiy faoliyatning biror bosqichida muayyan strategiya, taktika va metodlarni qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilgan tadbirkorlik va rol o'yinlari.

«**Ilmiy-tadqiqot ishlarida ma'ruza**» tarzidagi o'yin misoli. Bu o'yindagi asosiy rollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

-«**boshlovchilar**» - o'qituvchi, ishlab chiqarish mutaxassisi;

-«**peshqadamlar**» - muhokama qilinadigan muammoning muayyan masalasi bo'yicha vaziyatni tasavvur qila oladigan ma'ruzachilar;

-«**bezakchilar**» - peshqadamlarning ma'ruzalari va chiqishlarini ko'rgazmali tasavvur etishlari va tushuntirishlarini ta'minlovchi o'yin ishtirokchilari.

-«**assistentlar**» peshqadamlar yordamchilari bo'lib, ular peshqadamlarga va opponentlarga ko'rgazmali chiqishlariga yordam beruvchi o'yin ishtirokchilari;

-«**rasmiy opponentlar**» - peshqadamlarning ma'ruzasi va boshqa materiallar bo'yicha rasmiy tanqidiy ruhda chiqish qiluvchilar;

-«**norasmiy opponentlar**» - muammo bo'yicha guruh bo'lib yoki mustaqil ilmiy-tadqiqot olib boruvchi barcha boshqa talabalar – o'yin ishtirokchilari;

-«**chalg'ituvchilar**» - korxona yoki ilmiy muassasada qo'shimcha salbiy hodisa, faktlarni bayon qilish asosida o'yin ishtirokchilarining faolligiga sabab bo'ladigan savollar qo'yishi lozim bo'lgan o'yin ishtirokchilari. Korxona yoki

ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti o'qituvchilari, ilmiy xodimlari, talabalari bu «vazifa»ni bajarishlari mumkin.

-«*registratorlar*» - munozaralarni yozib oluvchi o'yin ishtirokchilari;

-«*ekspertlar*» - ma'ruza muhokamasidagi chiqishlar va echimning guruh bo'lib qabul qilinishi bo'yicha ob'ektiv baho beruvchi o'yin ishtirokchilari. Bu vazifada korxona va ilmiy muassasa mutaxassislari, oliy o'quv yurti *o'qituvchilari* va *ilmiy xodimlari*, talabalar qatnashishlari mumkin [9].

Bunday o'yinlarda quyidagi *asosiy vazifalar* hal qilinadi:

-bo'lg'usi mutaxassisni axborotlar almashishga o'rgatish;

-ularda o'z nuqtai nazarlarini asoslash va himoya qilish, boshqa kishilarning g'oyalariga kirib bora olish, guruh bo'lib yechim qabul qila olish malakasini shakllantirish.

O'yin-munozaralar bo'lg'usi mutaxassisda ilmiy-ishlab chiqarish muammosini qo'ya bilish va yechishga, mustaqil fikrlashga, ob'ektivlikka nisbatan qiziqishni shakllantiradi, muammolarni qo'yish, uni muhokama qilish, ularni yechishda o'zini tuta bilish ko'nikmalarini hosil qiladi [16]. O'yin-munozaralar muayyan muammo bo'yicha bahslarni tashkil etilishini ko'zda tutadi.

Bahs - muammoni *muhokama qilish jarayonidir*. Uning usuli esa guruh bo'lib tadqiq qilishdir. Unda har bir ishtirokchi hamsuhbati yoki raqibining fikrini asoslash, uni inkor etish orqali haqiqatni tiklashda o'z monopoliyasini o'rnatadi. Bahs-munozara borishining turli ***variantlari*** mavjud:

-*evristik* yondashuvda tomonlardan biri muammoning yechimi bo'yicha o'zining yondashuvini qabul qilishga urinmasdan ishontirish metodi, ichki tuyg'u, sog'lom aqldan foydalangan holda bahs ishtirokchilarini o'zining nuqtai nazariga og'dirib oladi;

-*mantiqiy* yondashuvdagi bahsga o'ta mustahkam mantiqiy tahlil va dalil-isbotlar xarakterli bo'lib, uning vositasida ishtirokchilar yakuniy xulosalarga keladilar;

-*so'fiyona* yondashuv - unda tomonlardan biri o'z raqibini donolik qilib mag'lub qilishi ham mumkin;

-*avtoritar* yondashuv - unda tomonlardan biri o'zining obro'sidan foydalanib, o'z nuqtai nazarini o'tkazishi mumkin;

-*tanqidiy* yondashuv - bahs ishtirokchilaridan ba'zilari o'z raqibining faqat kamchiligi, kuchsiz o'rni va mavqeiga diqqatni jalb qiladi va, aksincha, raqibining fikridagi ijobiy unsurlarni ko'rishga intilmaydi va muammoning yechimi bo'yicha o'z takliflarini ham bera olmaydi;

-*dogmatik* yondashuv - unda tomonlardan biri bahsni haqiqatni o'z manfaati uchun o'zining shaxsiy maqsadlariga muvofiq keladigan tomonga boshlab ketadi;

-*pragmatik* yondashuv - ishtirok etuvchilardan biri va har bir tomon faqatgina haqiqatni o'rnatish uchungina bahs yuritmaydi, balki undan o'zlarining yashirin va bahs ishtirokchilariga ma'lum bo'lmagan amaliy manfaatlariga burish uchun foydalanadi [13], [15].

Bahsni o'tkazishda quyidagi **qoidalar**ga ahamiyat berish lozim:

- opponentining o'z fikrini asoslovchi so'zini tinglab, kuzatib borishi;
- opponentini so'zlashdan to'xtatib qo'yishga shoshilmasligi;
- mayda-chuyda detallarga e'tibor qaratmasligi, eng muhimini ko'rishga, tushunishga harakat qilishi;
- kuchsiz o'rinlar, dalil-isbotlar, misollarni topish va tahlil qilish;
- opponentini o'zidan kuchli deb hisoblamaslik;
- O'ziga haddan tashqari bino qo'yish va ishonishga ruju bermaslik;
- qo'rqish raqib oldida mag'lubiyat ekanligini esda tutish.

«**Bahsda g'olib kelish san'ati**» - P.I.Pidkasisti tomonidan ishlab chiqilgan o'yinining misoli. Bu o'yin 2-3 soatga mo'ljallangan. O'yinning maqsadi – talabalarning bahs-munozara olib borish malakalari va qobiliyatlarini rivojlantirish va baholash. Munozara – bahsning muammolari. Bahs-munozaraga olib chiqiladigan muammo talabalar uchun dolzarb va qiziqarli bo'lishi kerak [15].

Namuna tariqasida quyidagi savollarni qo'yish mumkin:

1. Mening ijodiy, raqobatbardoshlik shaxsiyatim g'oyasi qanday?
2. Shaxsning ijodiy, ziyolilik, raqobatbardoshlik xususiyati nimalarda ko'rinadi?

3. Shaxsning mustaqil rivojlanish jarayonini men qanday tasavvur qilaman?

4. Bozor iqtisodi munosabatlari sharoitida o'zimni qanday unga bahshida qilaman?

O'yin ishtirokchilarining *rollari va vazifalari*:

-*Boshlovchi–o'qituvchi* o'yinning ma'nosi, asosiy bosqichlari va ishtirokchilarning vazifalarini aytib beradi. Ikki raqobatbardosh 7-10 kishidan iborat guruhlar yuqoridagi savollar bo'yicha munozaraga kirishadilar. Boshlovchi-o'qituvchi o'yinni lozim topgan oqimga yo'llab turadi, uning a'zolari faolligini ta'minlab turadi, munozaraning to'g'riligini kuzatadi, unga yakun yasaydi.

-*Ekspert–talabalar* munozara ishtirokchilariga baho beradi, guruhga va uning a'zolariga quyidagi me'yorlarga asoslangan holda baho qo'yadi:

- a) ifodaning mantiqiyliigi va asoslanganligi;
- b) nutq madaniyati, notiqlik san'ati usullarini egallaganligi;
- v) xulosalarning isbotliligi;
- g) bahs usullaridan rang-barang va samarali foydalanishi;
- d) savollar qo'ya olishi va hokazo.

O'yin *bosqichlari*:

-*birinchi bosqich* - tashkiliy bosqichdir, unda raqobatga kirishuvchi jamoalar va ekspertlar guruhi shakllantiriladi. O'qituvchi o'yinning maqsadi va qoidalarini bayon qilib beradi;

-*ikkinchi bosqich* - o'yin jarayonidir, o'yin davomida jamoalar olishlari mumkin va unda munozarani kutilmagan darajada yangi o'ylash va topish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

-*uchinchi bosqich* - o'yinga yakun yasashdir, bu bosqichda ekspertlarning har biriga o'z mulohazalarini bildirish uchun imkoniyat beriladi, ular esa o'z baholarining me'yorlarini hamda bahs-munozara ishtirokchilarining chiqishlari natijalarini asoslab beradilar.

Ekspertlar vazifasi:

-jamoaning g'alabasini asoslash;

-o'yin ishtrokchilaridan a) eng xushmuomala; b) eng aqlli; v) eng obro'li; g) eng ijodkorlarini aniqlab beradi.

O'yin yakunida o'qituvchi o'yinni tahlil qilib beradi va yakun yasaydi. Ayniqsa, o'qituvchi o'yinning borishi, uning muvaffaqiyati va kamchiliklariga urg'u berishi lozim. Shuningdek, istiqbolda e'tibor berilishi kerak bo'lgan muvaffaqiyatli, munozarali, ijodiy vaziyatlarni farqlab berishi kerak.

O'yinli texnologiyalarni amalga oshirish bo'lg'usi mutaxassisning ijodiy faoliyatini rivojlantirish metodlaridan foydalanishni taqozo qiladi. Ijodiy faoliyat tajribasini rivojlantirish metodlariga ilmiy tafakkurni jonlantirish, yangi muammolarni yechish malakasini ishlab chiqishga, muammolarni yechishda ongli izlanishga olib keladigan metodlar taalluqlidir. Ijodiy faoliyatni rivojlantirish metodlari G.S.Altshuller, O.G. Bogdanova, A.V. Brushlinskiy, G. Melxorn, B. Mironov, P. Yakobson va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgan [4]:

Sharoitni yoki muhitni ***murakkablashtiradigan metodlar***:

1. *Vaqt jihatdan chegaralangan metodlar*. U muvaffaqiyat faktorning konstruktorlik faoliyatiga sezilarli ta'sir etishni qayd qilishga asoslanadi: ba'zilar vaqt jihatdan chegaralash faollikni oshiradi va sokinlik holatiga qaraganda, yanada yuqori natijalarni ko'rsatadi, boshqalarida turli darajada o'z xulqini o'zgartiradi, natijalari kamayib ketadi va hamma vaqt ham oxirgi echimiga erishilmaydi; uchinchilarida, vaqt jihatdan chegaralash ularni jilovlaydi, talvasaga tushiradi, ular parokanda bo'ladilar, vasvasaga beriladi, ko'pchiligi yoki bir qismi vazifani yechishdan bosh tortadilar.

2. *To'satdan ta'qiqlash*. Jarayonning u yoki bu bosqichida xatti-harakatlarning qandaydir detallar mexanizmi ta'qiqlanadi. Bu bilan shtamplar, konstruktorlik faoliyati, moslamalar, qismlar, detallarning mashhur tiplarini qo'llash imkoniyatlari buzilishining oldi olinadi.

2. *Tezlikda eskizlash metodi*. Talabalarning konstruktorlik faoliyatining u yoki bu paytida rasm chizish talab qilinadi, o'z faoliyatini bevosita nazorat qilinishiga konstruktorlik ijodi jarayonini obrazlar vositasida boshqarishga, yordam beradigan miyasiga (hayoliga) kelgan barcha konstrukstiyalarni tasvirlaydi.

2.*Yangi variantlar metodi* vazifani, boshqacha bajarishni talab qilishda, ya'ni yechimning bir necha variantlari bo'lgan holda, uning yangi variantini topish va bajarishda ko'rinadi.

3.*Axborotlar tanqisligi metodi* konstruktorlik faoliyatining birinchi bosqichlarida alohida faollik vazifasi qo'yilganda qo'llanadi. Bunda vazifaning boshlanishida ma'lumotlar juda oz bo'ladi.

4.*Axborotlar mo'lligi metodi* vazifa qo'yilgan sharoitda, ortiq darajada ma'lumotlardan foydalanishga asoslanadi.

5.*Bema'ni metodning* mohiyati shundaki, unda mutlaqo bajarib bo'lmaydigan konstruktorlik vazifasi (abadiy dvigatelni yaratishga o'xshash) qo'yiladi.

6.*Rekodifikatsiya metodi.* Uning mohiyati shundaki, hodisalarni «ko'chirish» faktlari bilan bog'liq yangi va betakror g'oyalarni ishlab chiqish maqsadida hodisalarni boshqacha ifodalashdir, u «kashfiyotlar maydoni (matrista)» siga asoslanadi. Rekodifikatsiyani bir tildan ikkinchi til (fanda ko'pincha matematika tili)ga o'tkazish deb tushunsa ham bo'ladi. Biroq u barcha rekodifikatsiya tili bo'lishi mumkin emas, grafik ifodalar, sxemalar, tablitsalar, diagrammalar ham rekodifikatsiya vazifasini bajarishi mumkin [4].

Ijodiy vazifalarni ***guruh bo'lib yechish metodlari:***

Delfi metodi – tavsiya etilgan seriyadagi muqobillardan eng yaxshisini tanlab olishga yordam beradi. Guruh a'zolaridan har bir muqobilga muayyan izchillikda baho berish talab qilinadi. Tadbirni o'tkazish tartibi quyidagicha. Masalan, statistik metodlar orqali 5 ta kamchilik (defekt) sabablari aniqlangan. Qaysi biri muhim kamchilik? Muhokama ishtirokchilari muammoni avvalo muhimlik darajasiga ko'ra saralab chiqadilar. O'zlari uchun muhim hisoblangan muqobilni birinchi o'ringa, ikkinchi darajalarini beshinchi o'ringa qo'yadilar. Shundan so'ng har bir muqobilga har bir ishtirokchi kamchiliklarning sabablariga to'xtalgan holda 10 ballik tizim asosida baho qo'yib chiqadi. Bunda eng yuqori ball sifatida 1 va eng past 10 ball etib belgilanadi. Uchinchi bosqichda muqobillarning har biri o'zaro ko'paytiriladi va hosila raqam topiladi. Eng kam raqam tezlikda va birinchi

navbatda bartaraf qilinadigan sababni bildiradi. Hisoblashni osonlashtirish uchun maxsus jadval yasalishi mumkin.

“Dumaloq stol” metodi: Topshiriq yozib qo'yilgan qog'oz varag'i davra bo'ylab aylantiriladi. Har bir o'quvchi o'zining javob variantini yozib qo'ygach, varaqni boshqa o'quvchiga uzatadi. Keyin muhokama bo'ladi: noto'g'ri javoblar o'chiriladi, to'g'ri javoblarning soniga qarab o'quvchining bilimlariga baho beriladi. Bu metodni faqat yozma shaklda emas, balki og'zaki shaklda ham qo'llash mumkin.

Berilishi mumkin bo'lgan topshiriqlarga misollar:

- tarbiyaning tarkibiy qismlari qaysilar?;
- aqliy tarbiyaning hozirgi davr talbi nimada?;
- ahloqiy tarbiya vazifalari qaysilar?;
- ekalogik tarbiyaning mohiyati nimada?;
- mehnat va iqtisodiy tarbiyaning muhim vazifalarini izohlang;
- estetik tarbiyaning vazifalarini ayting;
- jismoniy tarbiyaning bugungi kundagi ahamiyati;
- huquqiy tarbiyaning muhim belgilari qaysilar?

Shuni esda tutish kerakki, yaxshi qo'yilgan savol, bu – javobning yarmisini o'zida jo etgan savoldir.

O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishni orttirish, didaktik-o'yin, o'quv munozaralari, o'quvchilarning tahsil olishdagi burch va mas'uliyatini shakllantirish metodlariga mansub bo'lib, ular quyidagicha:

a) o'qishga bo'lgan qiziqishni orttirish metodlari o'quvchilarda ijobiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, taajublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, o'quvchilarni rag'batlantirish va tanbeh berish uslubi.

b) didaktik o'yin metodi, o'yin syujetini tanlash, o'yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o'quv-bilishga oid o'yinlarni tanlash, o'quvchilarni rag'batlantirish uslubi.

c) o'quv munozaralari metodi o'quv bahslarini keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratish, ilmiy bahslarni vujudga keltirish. O'quvchilarni muvaffaqiyatlarga yo'llash, o'quvchilar fikrini bayon qilishi, ular javobidagi xatolarni to'g'rilash, o'quvchilarni rag'batlantirish uslubi.

d) o'quvchilarning tahsil olishdagi burch va mas'uliyatini shakllantirish metodi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o'quv talablarini qo'yish, o'qitishda rag'batlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi [4].

Ma'lumki, o'quvchilarning bilish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar didaktik o'yinli darslar deyiladi.

Didaktik o'yinli texnologiyalar o'quvchilarning bilim olish faoliyatini o'yin faoliyati bilan qo'shib olish borishdan iborat. Didaktik o'yinlar musobaqa, raqobat, o'zaro yordam, hamkorlik tarzida olib boriladi. Buning uchun o'qituvchi didaktik o'yindan ko'zda tutilgan maqsad, uni amalga oshirish yo'llari, o'yin mazmuni va ishtirokchilari faoliyatini aniqlab oladi. Didaktik o'yin darslari ta'lim va tarbiya berish, o'quvchilar faoliyatini yo'naltirish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarning muloqat va nutq madaniyatini rivojlantirish, ular bilimlarini chuqurlashtirish va shaxsni rivojlantirish vazifasini bajaradi.

Didaktik o'yinli darslarni mazmuniga ko'ra sahnalashtirilgan rolly o'yinlar, ijodiy ishbilarmonlik o'yinlari, konferentsiya va o'yin mashqli darslarga ajratish mumkin.

Didaktik o'yinli darslarning syujetli-rolly, ijodiy, ishbilarmonlar, konferentsiyalar va o'yin mashqlar kabi turlari bor.

Didaktik o'yinlarni tanlashda ishtirokchilarning yoshi, bilimi va tarbiyalanganlik darajasi hisobga olinadi. Har bir didaktik o'yin mashg'ulotlariga o'ziga xos xavfsizlik talablari qo'yiladi. Bu xavfsizlik talablariga to'liq rioya qilinishi har bir tashkilotchining doimiy e'tiborida bo'lishi lozim.

Bundan tashqari har bir didaktik o'yin uchun sarflanadigan vaqt miqdorini turli belgilash va unga rioya qilishning o'ziga xos asoslarini bilish va darsning maqsadiga muvofiq qo'llash talab qilinadi.

Didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari:

-ishtirokchilar tarkibi bo'yicha - o'g'il bolalar, qiz bolalar, o'smirlar, katta yoshdagilar uchun o'yinlar;

-ishtirokchilar soni bo'yicha - yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh sinf jamoasi, raqobatdosh komandalar, sinflararo va ommaviy o'yinlar;

-o'yin jarayoni bo'yicha - fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan o'yinlar;

-vaqt me'yori bo'yicha - dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'olib yoki g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan va boshqa o'yinlar [15].

Har bir didaktik o'yin jarayonida o'ziga xos vositalar turlari qo'llaniladi va mashg'ulot jarayonida ulardan turli, unumli va xavfsiz foydalanish lozim. Bu vositalarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

-kanstelyariya tovarlari - turli o'lchamlardagi oq va rangli qog'ozlar, skotch, flomasterlar, ruchka, qalam, chizg'ichlar, qaychi, yelim va boshqalar;

-texnika vositalari - proektor, mikrofon, kompyuter; videokamera, videomagnitofon, televizor va boshqalar;

-o'quv asbob-uskunolari - o'quv laboratoriya va ustaxona jihozlari, o'lchov asboblari, o'quv priborlari, moslama, mexanizm, model va boshqalar;

-mahalliy va tabiiy materiallardan tayyorlangan vositalar.

Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni ta'minlash texnologiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifati, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi, qulayligi va ulardan turli foydalanish mashg'ulotlar samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2.2. Mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi

Maktabda har bir o'qituvchi ayrim turdagi didaktik o'yin mashg'uloti o'quv materiallarini amalda qo'llash uchun tayyorlashini tashkil qilish metodik faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Bunda o'qituvchilar o'zmutaxassislik fanlari bo'yicha o'zlari tanlagan mavzudagi darsni eng maqsadga muvofiq didaktik o'yin turlaridan foydalanib o'tkazish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlashlari va uning asosida metod birlashma majlisida shu mashg'ulotni bayon qilib berishlari va tegishli muhokamalar o'tkazib borilishi tavsiya qilinadi.

1. Darsning maqsadi: O'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirishda rol, didaktik o'yinlarni o'rni va ahamiyati to'g'risidagi bilimlarini rivojlantirish.

2. Darsdan kutiladigan natija: Darslar uchun rol, didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlaydilar va ulardan dars jarayonida foydalana oladilar.

3. Dars turi: ma'ruza-suhbat.

4. Dars bosqichlari va dars taqsimoti: 45 daqiqa.

I. Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

II. darslarda rol, didaktik o'yinlarni qo'llash usullari – 20 daqiqa.

III. Darslar uchun rol, didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash – 18 daqiqa.

IV. Darsga yakun yasash – 5 daqiqa.

5. O'quv jarayonining mazmuni:

Metod: Rol, didaktik o'yinlar.

Forma: individual, guruhlarda.

Usul: og'zaki, yozma, taqdimot;

Baholash: reyting tizimida.

Uyga vazifa: keyingi o'tiladigan mavzuga tayyorlanish. Mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishish.

Dars jarayoni:

I. Tashkiliy qism – 5 daqiqa.

1. Salomlashish. 2. Davomatni tekshirish. 3. Darsni belgilangan talablar asosida tashkil etish. 4. Tinglovchilarning mavzuga doir tushunchalarini aniqlash va yangi mavzu maqsadi va darsdan kutiladigan natijalar bilan tanishtirish.

II. Darslarda rolli, didaktik o'yinlarni qo'llash usullari – 20 daqiqa.

Suhbat matni

Hozirgi kunda ta'limni tashkil etishda rolli o'yinlardan samarali foydalanishga e'tibor berilmoqda. O'yin chog'ida mahsuldor emas, balki jarayonli faoliyat tashkil etilganligi bois o'quvchilar tasviriy vaziyatlarni yaratish asosida o'zlarining atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarini tabiiy namoyon eta oladilar. O'yinli faol faoliyat esa ularning ijodiy imkoniyatlarini oishrib, tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilarning nazariy bilimlarni amaliy ko'nikma va malakalarga aylantirish, ularda ta'limiy faollikni yuzaga keltirish, ularni ijtimoiy munosabatlar jarayoniga keng jalb etishda rolli o'yinlar o'ziga xos o'rin tutadi.

O'yin texnologiyalari ta'lim samaradorlashni ta'minlash, o'quvchilarda faollikni yuzaga keltirish, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish, vaqtni qisqartirish, ta'limni jadallashtirishga yordam beradi.

O'yin jarayonida namoyon bo'luvchi psixologik xususiyatlar har o'quvchiga shaxsiy imkoniyatlarini namoyish eta olish imkonini beradi, ularning ijtimoiy hayotda egallagan o'rnini barqarorlashtiradi, ularda o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini hosil qiladi.

O'yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko'nikmalarning malakalarga aylanishini ta'minlab qolmay, o'quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

O'yinlarni tashkil etish maqsadlari quyidagilardir:

-ta'limiy (didaktik) maqsad;

-tarbiyaviy maqsad;

-faoliyatni rivojlantirishga yo'naltiruvchi maqsad.

-Rolli o'yinlarning muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun bir qator shartlarga amal qilish zarur. Ular quyidagilardir:

-jamoa a'zolari o'rtasida samimiy muhitni qaror toptirish;
-o'yin jarayonida qat'iy talablar qo'yilishini inkor etish;
-o'qituvchi va o'quvchilarning erkin, bermalol, o'ziga ishongan holda, xotirjam harakat qilishlariga erishish;

sinfda qulay sharoitning mavjud bo'lishi (shovqin darajasini nazorat qilish, o'quvchilarni chalg'ituvchi harakatlarni sodir etmaslik);

sinfda tartib va tinchlikni saqlash maqsadida o'quvchilarning o'yin **faolligiga** ta'sir qilmaslik.

Quyida fanning o'qitish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan o'yinlardan bir nechtasining umumiy loyihasini keltiramiz.

Tikuvchilik tarixida oddiy choklarda ishlash mavzusini so'rash jarayonida rolli o'yin texnologiyasidan foydalanish mumkin.

O'qituvchi sinfni 2 ta guruhga ajratadi. 1-guruh: "Orasta qizlar", 2-guruh: "Dizayner qizlar". Shundan so'ng o'qituvchi "Orasta qizlar" guruhidan bir o'quvchiga sekingina unda tanlangan matoga fason yaratib berish kerakligini aytadi. Fasonda o'quvchi unda etishmaydigan kamchiliklarni eshitgach: shu fason bulmagan taqdirda fasonda kanday kamchilik va belgilarini paydo bo'lganligini 2-guruhdagi o'qituvchi tanlangan o'quvchiga aytishi kerak. Dizayner kizlar uni diqqat bilan tinglab, fasonga moda yaratishi ya'ni u matoga kanday fason tanlash kerakligini aniq aytib, uni tikish uchun kanday asbob-uskunalar kerakligini aytadi. Ko'rinib turibdiki, Orasta kiz guruxidagi rolidagi o'quvchi ham Dizayner kiz rolidagi o'quvchi ham mavzuni chuqur bilmasdan turib o'z rolini bajara olmaydi. Rolli o'yin davomida shunday hol bo'lgan taqdirda bu o'quvchi shu guruhdagi boshqa o'quvchi bilan almashtiriladi. Albatta, bu guruh o'rnini belgilashda salbiy ta'sir ko'rsatadi [6], [14]. O'yin mavzu doirasida rejalashtirilgan savollar tugaguniga qadar davom etadi.

"Jumboq ko'chasi" o'yini

Ki – m Kiyimni dazmollash uchun kerak boladigan buyum ("doka",suv)
qu... n – Mato tayyorlashda qanday jonivorlarning terisidan foydalaniladi? (Qora mol, quyon, tuya)

ves... a – Yoz faslida kiyiladigan matolar (Mato – “SHifon , veskoza”)

tik... si – Matoning bichib koʻylak tikishga tayyorlanishi (Avtomatiyasi – “Tikish mashinkasi”)

“Davom ettiring” oʻyini

Bu oʻyinda 3 ta oʻquvchi qatnashib, uning biri hakamlik vazifasini bajaradi. Oʻquvchilar oʻyinni Tikuvchilik jixozlari ayrim suzlari boʻyicha oʻtkazishlari tavsiya etiladi. Oʻyinning bu variantida oʻyin aytilgan buyumlar nomining oxirgi harfi bilan boshlanadigan buyum nomini aytish yoʻli bilan olib boriladi. Ushbu oʻyinda hakamning qarori boʻyicha 1-oʻquvchi engilgan hisoblanadi. Chunki, u “K” bilan boshlangan buyumning nomini topa olmadi.

1-oʻquvchi	2-oʻquvchi
Qaychi angishvona aplikastiya qurok	Igna andoza yamoq

Yoki davom ettirgan xolda Oziq- ovqat turlari bilan oʻyin oʻynashda “Q” harfi bilan boshlanadigan oziq -ovqat turlarini oʻquvchilar navbatma-navbat aytadilar.

“Q” harfi bilan boshlanadigan ozik ovkat turlari

1-oʻquvchi	2-oʻquvchi
Quymoq atala ikra lagman	Qavurma asarti asal non

Bu oʻyinda hakam 2-oʻquvchini yengilgan deb topadi, chunki u “N” harfi bilan boshlangan navbatdagi oziq-ovqatning nomini ayta olmadi.

“Bilagʻonlar” oʻyini

1. Nozmunchoq buyumlari –(munchoq va koloya)
2. Munchoqning afzalliklari-(korkam, inson qolida chiroyli turadi, undan jozibador buyum yasaladi)
3. Bahor malikasi? – (Lola)

4 Eng sifatli biser –(Chex biseri)

5. Elastik ipni qalinlik diametri?

a)17mm

b) 0.17mm

c) 20mm

d)0.12mm

6.Taqinchoqlar yasashda munchoq uchun zastyojka?

a)strazlar

b)kichkina qulfcha

c)sxemalar

d)sobiq bogimiya

e)kabashonlar

III. Mehnat talimi darslari uchun rolli, didaktik o'yin topshiriqlarini tayyorlash

Tinglovchilar kichik guruhlarda rolli, didaktik o'yin tarqatmalarini tayyorlaydilar va uning taqdimotini o'tkazadilar.

IV. Darsga yakun yasash – 5 daqiqa.

O'qituvchi mashg'ulot maqsadi va natijalarini tinglovchilarga eslatadi, ularni qay darajada amalga oshirilganligini aniqlaydi. Faol tinglovchilarni reyting tizimida baholaydi yoki rag'batlantiradi. Mashg'ulotga yakun yasaydi.

Uyga vazifa: keyingi o'tiladigan mavzuga tayyorlanish. Mavzuga doir adabiyotlar bilan tanishish.

“Har kim – har kimga o'rgatadi” texnologiyasidan mehnat ta'limi darslarida foydalanish

“Har kim har kimga o'rgatadi” uslubi o'quvchilarga o'rgatuvchiga aylanish, ma'lum bilimlarni o'zlashtirgach, o'rtoqlari bilan baham ko'rish imkonini beruvchi o'qitish uslubidir. Bu uslubning maqsadi o'quvchilarga o'qitish jarayonida zarur bo'lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda o'quvchida axborot olish va berishga qiziqish uyg'otishidir. Shuningdek, axborot hajmini

olgan o'quvchi ma'lum vaqt davomida uni iloji boricha ko'proq o'rtoqlariga etkazadi.

Qo'llanilishi. O'quvchilarga axborot olish va berishga qiziqish uyg'otish uchun. Mavzuni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun.

Afzalligi. O'z fikrini qisqa bayon etishi. Tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi. Fanga yoki mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi.

Zard'zlik san'ati (rolli o'yin).

Mashg'ulotning maqsadi: Yangi model tuzilishi va funktsiyasi, ularni o'zaro aloqasi haqidagi bilimlarni yanada chuqurlashtirish, qayta tiklash va rivojlantirish.

Mashg'ulotning borishi: birinchi qism savol-javob, ikkinchi qism zardo'zlik san'ati o'z hayot faoliyati haqida aytishuvi, xulosalash.

Mashg'ulot jihozlari: zardo'zlik san'atini hayot faoliyatini tasvirlovchi rasmlar, manglay qoshlar, zardo'zlik san'atini aks ettiruvchi rasmlar.

O'yin oldingi mashg'ulotlar paytida yozdirilgan savollarni muhokama qilishdan boshlandi. Uni «**Mavzulararo o'yin**» tarzida olib boriladi.

Bu uning zar, fatula, ip, nina, gazlama, go'zallik, bezak rollarini ijro etuvchilar uchun qog'ozdan manglayqosh tayyorlanadi.

Manglayqoshda qaysi tinglovchi qanday organoid rolini bajarayotgan o'quvchi bo'lsa, shu organoid nomi yoziladi. Ularni 7 ta o'quvchi boshlariga kiyib olib, o'z rollarini bajarishga kirishishadi.

Birinchi bo'lib doskaga **zar** rolidagi o'quvchi chiqadi va u:

- **Men zar bo'laman. Men haqimda nimalarni bilasizlar?** - deb savol beradi.

- Zardan qanday buyumlar tikiladi?

Ikkinchi bo'lib doskaga **fatula** rolidagi o'quvchi chiqadi va o'zini tanishtirib savol beradi:

- Fatula zar tikishda qanday ahamiyat kasb etadi?

Ip rolidagi o'quvchi o'zini tanishtiradi va savollar beradi:

- **Ip qachon kashf qilingan, u qanday tuzilishga ega va qanday vazifalarni**

bajaradi?

Gazlama rolidagi o'quvchi: Gazlamalar qanday tuzilgan, tarkibida nimalar bor, necha xil ko'rinishda bo'ladi.

Go'zallik rolidagi o'quvchi:

- Go'zallik nima?

- Nina kimning nomi bilan atalgan, uning tuzilishi qanaqa, qanday funkstiyalarni bajaradi?

Qolgan o'quvchilar qo'yilgan savollarga javob berishadi. Shundan so'ng doska yoniga zar organoidlari rolini ijro etuvchilar, ya'ni, zar, fatula, ip, nina, gazlama, go'zallik va bezak chiqib o'zaro suhbat qilishadi.

Birinchi «**Ip**» so'z oladi:

- Hov menga qaranglar. Organoidlar ichida eng keraklisi menman, chunki men barcha zardo'zlik buyumlarda uchrayman.

Gazlama:

- Menga qara ipjon, buncha taltayma, men sendan kam ish bajarmayman. Men ham barcha zardo'zlik buyumlarida topilganman. Men faqat sening tarkibingda emas, erkin holda ham uchrayman. Bu jarayon juda murakkab, uni ko'plashib amalga oshiramiz.

Zar:

- Ey, sen ham juda oshirib yubording-ku. Axir senlarga zarur energiyani etkazib beruvchi menman-ku. Men bo'lmaganimda hech qaysing biror ish qilolmasding!

Fatula:

- Hammalaring ichingda men bo'lmaganimda, biror ish bajara olmasdinglar.

- Hammalaring o'zlaringdan ketib yubordularing-ku, - so'zni bo'ladi bezak,- hammalaringdan o'zim zo'rman. Men sizlar bajargan ishlarni nafosatliroq qilib ko'rsataman. Men bo'lmaganimda hammalaring ishlaring to'xtab qolar edi.

Chetda hamma tortishuvlarni eshitib turgan go'zallik asta xo'rsinib: «Men ham gapirsam maylimi», -deb gap boshlaydi. - Sizlarga ba'zi bir narsalarni eslatib o'tishga haqqim bor deb o'ylayman. Chunki sizlar menda joylashgansizlar. Bu

bilan men maqtanmoqchi emasman. Agar birgalikda ishlamasak zarning go'zalligini ta'minlay olmaymiz. Qisqasi, biz hammamiz bir-birimizga bog'liqmiz!

Shundan so'ng hamma bir joyga to'planishib:

- Bitta guruhmiz! - Bir-birimizga bog'liqmiz! - deya uch marta qaytarishadi. O'yin darslarini shu usulda olib borish, o'quvchilarning eslash, fikrlash qobiliyati, eng muhimi esa fanga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Darsni o'tib bo'lgach, savollarga javob beriladi, mavzuning e'tibordan chetda qolgan qismlari to'ldiriladi.
- Darsda savollarga yaxshi javob bergan, **faol** qatnashgan, rollarni yaxshi ijro etgan o'quvchilar ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi. So'ngra xulosa yasab, kelgusi darslar haqida yo'llanma beriladi.

Xulosa

Mazkur bobda o'yinli faoliyat funkstiyalari, pedagogik o'yinlar tasnifi, tadbiroklik o'yinlarining texnologik sxemasi, didaktik o'yin turlarini tanlash mezonlari, didaktik o'yin vaqtida foydalaniladigan vositalar tavsifi, mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi to'g'risida bayon qilingan.

Xotima

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish shart-sharoitlari o'rganildi, ta'lim tizimida o'yin texnologiyalaridan foydalanishga doir pedagogik-psixologik adabiyotlar, ilmiy, ilmiy-uslubiy asar va maqolalar tahlil qilindi.

1. Ta'lim tizimida o'yin texnologiyalardan foydalanishga doir adabiyotlar, ilmiy-tadqiqotlar o'rganildi, pedagogik-psixologik jihatdan tahlil qilindi.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari mehnat ta'limi IX sinf «Servis xizmati» yo'nalishi mavzular tahlil qilindi. Mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari aniqlandi.

3. Mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalardan foydalaniladigan didaktik vositalar tavsiflandi.

4. Ishlab chiqilgan metodika asosida mehnat ta'limi darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari dars ishlanmalarida ko'rsatib berildi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч. - Т.: Маънавият, 2008. - 173 б.
2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Mehnat ta'limi, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya (1-9 sinflar). Ta'lim markazi.T-2010.292.b.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012 yil 16 maydagi 160-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2012-2013 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida.10.b.
4. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. Ўқув қўлланма. - Т.: ТДПУ, 2003. - 174 б.
5. Болтабоев С.А. ва бошқалар. Меҳнат ва касб таълими методикасидан ўқув машғулотлари. Услубий қўлланма. Тошкент;Низомий номли ТДПУ, 2003.-18 б.
6. Давлатов К.Д. Меҳнат ва касб таълими назарияси ҳамда методикаси. - Т.: Ўқитувчи, 1992. - 320 б.
7. Давлетов К. Меҳнат ва касб таълим-тарбиясидан амалий машғулотлар.- Т.: ўқитувчи, 1995.-267 б
8. Давлетшин М.Г. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. - Т.: Ўзбекистон, 1999, - 29 б.
9. Йўлдошев Ж.Ғ, Усмонов С.А. Педагогик технология асослари (Халқ таълими ходимлари учун қўлл.). – Т.: Ўқитувчи, 2004. - 101 б.
10. Исмоилова З.К. Талабаларнинг касбий педагогик малакаларини шакллантириш.: Автореф. дис. ... пед. фан. ном. - Т.: 2000. - 18 б.
11. Пошшахўжаева М., Абдурахмонова Ш.А., Пўлатова С. «Хизмат кўрсатиш меҳнати» 5,6,7-синфлар учун ўқув қўлланмалар. Тошкент. «Ўқитувчи». 1993.-60 б.
12. Сарсенбаева Р.М. Меҳнат таълими негизида ўқув-тарбиявий тадбирлар

- ўтказишнинг илмий-методик асослари.: Автореф. дис. ... пед. фан. ном. - Т.: 2004. - 20 б.
13. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технологиялар. – Тошкент: Молия, 2003 – 172 б.
 14. Толипов Ў.Қ. Олий педагогик таълим тизимида умуммехнат ва касбий кўникма ва малакаларни ривожлантиришнинг педагогик технологиялари: Пед.фан.докт. ... дисс. - Т.: 2004. - 314 б.
 15. Толипов Ў.Қ., Усмонбоева М. Педагогик технология: назария ва амалиёт. – Т.: Фан, 2005. – 206 б.
 16. Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилик ижодкорлигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари. (Мехнат ва касб таълими факультетлари мисолида): Пед.фан.ном. ... дисс. - Т.: 2000. - 205 б.
 17. Шарипов Ш., Муслимов Н.А., Исмоилова М. Касбий таълим педагогикаси. Методик қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2005. - 58 б.
 18. Шермухаммедов Р., Яхяев С.С., Пармонов А.Э. Касб таълими практикуми (Чилангарлик).-Т.: «Иқтисод-Молия» 2008.-60 б.
 19. Яхяева З.М. Ўқитувчилар учун синфдан ташқари машғулотларнинг намунавий ишланмалари.Т., 1994 й. 104-б.
 20. Eldasheva G.V. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – O'MKHTTKMOvaUQT instituti, T. – 2006. 124 b.
 21. <http://www.ziyonet.uz>
 22. <http://www.istedod.uz>
 23. <http://www.pedagog.uz>
 24. <http://www.uzedu.uz>
 25. <http://www.lib.uz>

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ SHAKLI

Buxoro davlat universiteti
Fizika-matematika fakul'teti

Ta'lim yo'nalishi: 5142000 "Mehnat ta'limi"

Kafedra: Umumtexnika fanlari

Bitiruv malakaviy ish bo'yicha
TOPSHIRIQ VARAQASI

1. Ijrochi: RAJABOVA NARGIZA BAXTIYOROVNA

2. Mavzu: **Mehnat ta'limi darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi (IX sinf "Servis xizmati" yo'nalishi mavzulari misolida)** mavzu universitet Kengashining «_____» _____20_____ yildagi _____ sonli qarori va universitet rektorining «_____» _____20_____ yildagi _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

3. Mavzuning dolzarbligi, nazariy va amaliy (iqtisodiy, ekologik, ilmiy-texnik, mehnat muhofazasi, hayot xavfsizligi va h.k.) ahamiyati Zamonaviy didaktika o'qitish talablari, amaliy faoliyatdagi yangicha yondashuvlar ta'lim berish texnologiyasi bilan boyib borar ekan. O'kituvchi o'zidan o'quv ma'lumotini o'tkazuvchi o'ziga xos filtr rolini bajaradi va ish jarayonida yordamchi funkstiyasini bajaradi. Shuning uchun ta'lim jarayonida faol metodlar asosida o'qitish avvalambor katta yoshdagi o'quvchilarni intensiv o'qitish jarayonida ko'llash uchun mo'ljallangan xulosa kilib aytish mumkinki, faol o'qitish metodlarini ko'llab mashrulot o'tilganda, materialni o'zlashtirish darajasi yukori bo'ladi, ishtirokchilar o'rtasida do'stona muxit yaratiladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, bitiruv malakaviy ish mavzusini «Mehnat ta'limi darslarida o'yinli texnologiyakardan foydalanish metodikasi (IX sinf "Servis xizmati" yo'nalishi mavzulari misolida)» deb nomlanishiga asos bo'ldi.

4. Malakaviy ishni bajarish uchun tavsiya qilinadigan ilmiy, o'quv-uslubiy va boshqa axborot manbalari (darslik, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matni, monografiya, ilmiy maqolalar va h.k.)

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.- T: Ma'naviyat, 2008. - 173 b.

2. Uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi Mehnat ta'limi, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Musiqa madaniyati, Jismoniy tarbiya (1-9 sinflar). Ta'lim markazi.T-2010. -292 b.

3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012 yil 16 maydagi 160-sonli buyrug'i. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2012-2013 o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejalarini tasdiqlash to'g'risida. -10 b.

4. Carsenbaeva R.M. Mexnat ta'limi negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari.: Avtoref. dis. ... ped. fan. nom. - T.: 2004. - 20 b.

5. Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha ma'lumotlar to'plash hamda tadqiqot ishlari olib boorish manbalari va joylari (o'quv zali va xonalari, ilmiy kutubxona, laboratriya, tashkilot, korxona, ilmiy yoki ta'lim muassasasi)

1. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat markaziy kutubxonasi

2. Buxoro davlat universiteti axborot resurs markazi

3. <http://www.ziyonet.uz>

4. <http://www.uzedu.uz>

6. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlash bo'yicha amalgam oshirilgan ishlar rejasi:

№	Ishning mazmuni	Taxminiy hajmi (bet)	Ijro muddati	Izoh
1.	Masalaning qo'yilishi. Mavzuning dolzarbligi, yechilishi yoki o'rganilishi lozim bo'lgan masalaning mohiyati va maqsadini yoritib berish, ilimiy yangiligi (kirish qismi).		Sentabr	
2.	Mavzu bo'yicha ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish (yordamchi mulohazalar va faktlar)		Oktabr	
3.	Olib borilgan tajribalar, tadqiqot ishlari, natijalarni tahlil qilish va tartibga solish (bob, paragraf, bo'lim yoki qismlar bo'yicha).		Noyabr	
4.	Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati bo'yicha xulosalar berish hamda tadbqiq sohalari va usullariga oid takliflar tayyorlash		Yanvar Fevral	
5.	BMIning rasmiylashtirish va uning himoyasi uchun zaruriy ko'rgazmali vositalarni (kompak disk, slaydlar, jadvallar, rasmlar, grafiklar, diagrammalar, maket, stend, h.k)		Mart Aprel	
6.	Dastlabki himoyaga tayyorgarlik ko'rish va himoyaga chiqish matnini tayyorlash		May	

7. Ilmiy maslahatchilar:

Maslahatchi	Bo'limlar	Topshiqir	Izoh

Ilmiy rahbar:

p.f.n. H.O.Jo'rayev

Kafedra mudiri:

p.f.n. H.O.Jo'rayev

Topshiriqni bajarishga oldim

Rajabova Nargiza Baxtiyorovna

«_____» _____ 20__ y.

Rajabova Nargiza Baxtiyorovnaning “5142000 – “Mehnat ta’limi” yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish uchun “**Mehnat ta’limi darslarida o’yinli texnologiyalardan foydalanish metodikasi (IX sinf “Servis xizmati” yo’nalishi mavzulari misolida)**” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishining

ANNOTASIYA (QISQACHACHA MAZMUNI)

1. Bitiruv malakaviy ish mavzuining dolzarbligi: Zamonaviy didaktika o’qitish talablari, amaliy faoliyatdagi yangicha yondashuvlar ta’lim berish texnologiyasi bilan boyib borar ekan. O’qituvchi o’zidan o’kuv ma’lumotini o’tkazuvchi o’ziga xos filtr rolini bajaradi va ish jarayonida yordamchi funkstiyasini bajaradi. Shuning uchun ta’lim jarayonida faol metodlar asosida o’qitish avvalambor katta yoshdagi o’kuvchilarni intensiv o’qitish jarayonida ko’llash uchun mo’ljallangan xulosa kilib aytish mumkinki, faol o’qitish metodlarini ko’llab mashfulot o’tilganda, materialni o’zlashtirish darajasi yukori bo’ladi, ishtirokchilar o’rtasida do’stona muxit yaratiladi.

Yuqoridagilarni nazarda tutgan holda, bitiruv malakaviy ish mavzusini «Mehnat ta’limi darslarida o’yinli texnologiyakardan foydalanish metodikasi (IX sinf “Servis xizmati” yo’nalishi mavzulari misolida)» deb nomlanishiga asos bo’ldi.

2. Tadqiqot ob’yekti va predmeti: umumiy o’rta ta’lim maktablari “Mehnat ta’limi” fanidan nazariy va amaliy mashg’ulotlar jarayoni tadqiqot obekti hisoblanadi. Mexnat ta’limi darslarida didaktik o’yin texnologiyalardan foydalanib o’qitishning shakli, vosita va metodlari tadqiqot rpedmeti sifatida qaralgan.

- 3. Ishning maqsadi va vazifalari: Mexnat ta’lim darslarida didaktik o’yin texnologiyalaridan foydalanib o’qitish metodikasini ishlab chikish tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Tadqiqot vazifalari quyidagilar: mexnat ta’limida nazariy va amaliy mashfulotlari jarayonida o’yin texnologiyalardan foydalanishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlarini taxlil qilish; mexnat ta’limi jarayonida o’yin texnologiyalaridan foydalanishning shakllari va yo’llari; mexnat ta’limi darslarida o’yin texnolgiyalaridan foydalanishga doir metodik ishlanmalar tayyorlash.

4. Tadqiqot usuli va uslubi: tadqiqot mavzusiga doir bo’lgan ilmiy-metodik adabiyotlarni o’rganish va taxlil qilish; umumiy o’rta ta’lim maktablarida mexnat ta’limi darslarini tashkil kilinishini kuzatish, maktab me’yoriy xujjatlari va etakchi o’qituvchilarning tajribalarini o’rganish.

5. Olingan asosiy natijalar: Umumiy o’rta ta’lim maktablari IX sinf «Servis xizmati» yo’nalishi mavzularini o’yin texnologiyalaridan foydalanib o’qitish metodikasi ishlab chikildi.

6. Natijalarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati: mexnat ta’limi darslaridan o’yin texnolgiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini aniklandi, o’yin texnologiyalaridan foydalanish shakllari va yo’llarini o’rganildi, o’qitish metodikasini ishlab chikildi.

7. Tadbiq etish darajasi va iqtisodiy samaradorligi Tadqiqot davomida ishlab chikilgan metodikadan umumiy o’rta ta’lim maktablari IX sinf «Mexnat ta’limi» darslarida ko’llab iqtisodiy samaradorlikga erishish mumkin.

8. Ishning hajmi va tuzilishi: Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, 5 paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, 15 ta chizma, 5 ta jadvalni o’z ichiga olgan va hajmi 60 sahifani tashkil etadi.

Rahbar _____ p.f.n. H.O.Jo’rayev

Talaba _____ N.B.Rajabova